



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/10

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№10/2023
oktyabr

Muassis:
Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining
2021 yil 30 sentyabrdagi
306/6-son Qarori bilan
PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:
28.10.2023 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.
Buyurtma raqami 1.23
«FAN VA TA'LIM»
nashriyotida chop etildi.
Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Abdullayev R. I. Qo'qon xonligida qo'lyozma kitoblarni badiiy bezash san'ati	7
Abdurasulova D. T. Jizzax shahrida Erkin iqtisodiy zonalarning tashkil qilinishi va ular faoliyatining tartibga solinishi	10
Boltayeva M. J. Sog'liqni saqlash tizimiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilish tarixidan(Jizzax viloyati misolida)	14
Umarova M. Buxoro amirligida amir shahmurod hokimiyatining o'rnatilishi.	18
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Akramova S. R. Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetik tadqiq tamoyillari	21
Axmedova M. B. Zamonaviy tilshunoslikda semantik maydon tushunchasi va uning o'rganilishi	24
Jamolova Z. Adabiy obzorda ilmiy-nazariy muammolar talqini	28
Jaqsiliqova A. S. Satirik nasirda qo'llanilgan maqollarning estetik funksiyasi	32
Madraximova I. B. Kuz obrazining trinar talqini	35
Navruzova M. G. Tibbiy birliklarning leksik qamrovi va ularning xalq jonli tili bilan bog'liqligi	39
Pirmatova O. S. Palov - o'zbek madaniyati ramziy tushunchasi sifatida	44
Polvanova N. A. Adabiy ta'limda uy vazifalari bilan ishlashni takomillashtirish usullari	49
Saminjonov M. S. Soha qasamlarining milliy-madaniy xoslanishi	52
Салахидинова З.О. Конструирование практического занятия по синтаксису русского языка	57
Turdieva Z. S. Temirpo'lat Tillaevning "Turnalar ohi" qissasida peyzajning badiiy funksiyasi	60
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Abdulxafizov B. X. Pedagogik kvalimetriya asosida o'rta maktab (10-11-sinf) o'quvchilarining bilimlarini baholashda ota-onalar va jamiyatning rolini tahlil qilish.	64
Abdumajitova S. A. Xorijiy davlatlarda steam ta'lim texnologiyasini rivojlanish tarixi	68
Adilov S.Q. Sport kurashida sportchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash texnologiyasi	73
Alimova Sh. R. Bo'lajak o'qituvchilarni xalq pedagogikasi vositasida ma'naviyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	79
Avazov A. J. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish strategiyalarining nazariy va amaliy ahamiyati	83
Абдуллаев С. Ф. Скетч – зарисовки как инновационное направление в подготовке учителей изобразительного искусства	86
Ахмедов М. У. Качество среднего образования как педагогическая проблема	91
Boychaeva N. Bases of analysis and research of the professional competence and creativity of the teacher in the art of music	95
Davronov I. E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining innovatsion faoliyatida kreativlikning o'rni	98
Davlatova S. T. Talabalarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda fanlararo integratsiya	104
Fatayeva F. R. O'quvchilarni kiberbullingdan himoya qilish dolzarb pedagogik muammo sifatida	106

Fayzullayeva M. A. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishda raqamli ta'lim resurslarini qo'llash	111
Hakimova M. H. Boshlang'ich sinfda matematika fanini o'qitishga yondashuvlar	116
Hamdamova Z. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rni va ahamiyati	120
Hamroyev R. R. Axborot texnologiyalar fanini o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar	125
Islomov R. T. Innovatsion texnologiyalar orqali o'quv jarayonlarini mustahkamlay oladigan xilma-xil usullar	129
Ismatova N B. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbga qiziqishini rivojlantirish muammosining – Sharq mutaffakirlari ijodida ifodalanishi.	132
Kadirova M. M. Talabalarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari vositasida iqtisodiy ko'nikmalarni takomillashtirish yo'llari	136
Karimjonova M. I. Kinolog kadrlarni tayyorlash tizimida innovatsion texnologiyalardan integrativ maqsadlarda foydalanishning ahamiyati (Milliy kinologiya markazi o'quv-o'rgatuv jarayoni misolida)	142
Kurbonov M. U. Kompetentlik-bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga motivation tayyorgarlik omili sifatida	147
Kamilova G. A. Xalq ozaki ijodi-maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida	150
Кучимов М. К. Системный подход к трудоустройству выпускников вузов	153
Mamirov A. X. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda ta'limning faol usullarini qo'llash	156
Mustafaqulova D. I. Ilyosov U. I. Tizimli tafakkur zamonaviy didaktik metodlarini amaliyotda qo'llash	160
Muxsinov Sh. U. Hakam va o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar muammosi va uning hakamlik sifati bilan aloqasi	165
Ne'matova F.B. PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	169
Nematova Z. T. Autentik materiallar orqali talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik muammolar.	172
Niyozmatov A. O'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	178
Nurova R. I. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida teatr pedagogikasining ahamiyati.	183
Nadjimitdinova M. A. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ijodiy faolligini oshirish bosqichlari	187
Norova I. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida husnixat bilan yozish ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	191
Nigmanov B. B. Bo'lajak jismoniy tarbiya trener-o'qituvchilarini tayyorlashga yangicha yondashuv	196
Omonboeva N. E. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv izohli lug'atlari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish	200
Pardabaev J. Maktabdan tashqari ta'limda o'quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirish omillari	204
Parpieva M. S. Internal and external pedagogical impact on the intellectual development of students	207
Pozilova Sh. Professional ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini kasbiy kreativligini baholash bosqichlari	211
Qo'chqarova F. M. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish komponentlari va uning o'ziga xos xususiyatlari	216
Quliyeva Sh. H. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda metodik kompetentlikning o'ziga xos xususiyatlari	219
Rahmonov U. T. Rasmiy matnlar yaratish ko'nikmasini rivojlantirish metodlari	223
Sagindikova N.J. Shaxs shakllanishida gender xususiyatlari ahamiyati	228
Tojiboyeva X. M. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuvlar	231

BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA METODIK KOMPETENTLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Quliyeva Shahnoza Halimovna,

Buxoro davlat universiteti, "Geliyofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: maqolada bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda metodik kompetentlikning o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan bo'lib, ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy, texnologik va metodik kompetentlik uzviy hamda uzluksiz bog'ligligi bayon etilgan. Ta'lim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni takomillashtirish mazmuni berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, texnologiya, metodik kompetentlik, metodik tizim, shakl, metod, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari.

ОСОБЕННОСТИ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Кулиева Шахноза Халимовна,

Бухарский государственный университет, доцент кафедры "Гелиофизика, возобновляемые источники энергии и электроника"

Аннотация: в статье представлены особенности методической компетентности при подготовке будущих специалистов, а также описана целостная и непрерывная связь профессиональной, технологической и методической компетентности при подготовке будущих специалистов в образовательном процессе. Обучающимся предоставляется самостоятельное и свободное мышление, совершенствование полученных знаний.

Ключевые слова: компетентность, технология, методическая компетентность, методическая система, форма, метод, информационно-коммуникационные технологии.

FEATURES OF METHODOLOGICAL COMPETENCE IN TRAINING FUTURE SPECIALISTS

Kuliyeva Shahnoza Halimovna,

Bukhara State University, associate professor of the department "Solar physics, renewable energy and electronics"

Abstract: the article presents the features of methodological competence in the training of future specialists, and also describes the holistic and continuous connection of professional, technological and methodological competence in the training of future specialists in the educational process. Students are provided with independent and free thinking and improvement of acquired knowledge.

Key words: competence, technology, methodological competence, methodological system, form, method, information and communication technologies.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham ilm-fan taraqqiyoti natijalari, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining joriy qilinishi turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishiga olib kelmoqda. Ta'lim oluvchilar axborot miqdori oshib borayotgan bugungi kunda yangi bilimlarni tezda o'zlashtirib olishlari uchun o'quv adabiyotlarining turli shakllaridan foydalanishlari talab etiladi. O'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni takomillashtirish, yangi bilimlarni turli o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi kerak.

Davlatimiz istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samaradorligi yuqori malakali yuksak ma'naviyatli, rivojlangan mamlakatlar darajasida, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirish muammosi bilan uzviy bog'liq.

Ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni o'qitish jarayonida kutilayotgan natija umumkasbiy va metodik tayyorgarligiga alohida e'tibor berish zarur. Bo'lajak mutaxassislar davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga keltirilgan kompetensiyalar asosida shakllantirilishi kerak.

N.A. Muslimovning "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" adabiyotida metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llashdan iboratligi berilgan.

Shu bilan birga, N.L. Stefanova “o'quv-metodik tizimi” tushunchasiga quyidagi mazmuni qo'yadi: “bu o'quv jarayonining turli tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi modeldir, shu jumladan maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllari, vositalari va rejalashtirilgan ta'lim natijalari” [Stefanova N. L. Pedagogik universitetda matematika o'qituvchisi uchun metodik tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishning nazariy asoslari: Dissertatsiyaning avtoreferati. dok. diss. - SPb., 1996].

T. A. Voronenko ta'limning metodik tizimini aniqlashda [Voronenko T. A., N.I. Rijova Informatika o'qitish metodikasi. Maxsus texnika: Talabalar uchun darslik. - Sankt-Peterburg: Ros. ped. un-t, 1997] quyidagilarni taklif qiladi:

- 1) tizimdan tashqaridagi maqsadlarni aniqlash;
- 2) metodik tizim elementlari majmuasini quyidagi elementlarni qo'shish orqali kengaytirish:
 - ta'limdan kutilayotgan natijalar;
 - ta'lim mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini tanlash texnologiyalari;
 - uslubiy tizim elementlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish texnologiyalari.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning zamirida yuqori malakali mutaxassislarning roli benihoya kattadir. Bo'lajak o'qituvchilarda texnologik kompetentlikni shakllantirishda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarining roli ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero, an'anaviy ta'lim o'z mavqecini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda. Respublika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish - zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish jarayonlari samaradorligini ta'minlovchi kasbiy ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi uzluksiz ta'lim mazmunini yangilash, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi.

Shu asosda bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, ta'lim bosqichlarining o'zaro uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning texnologik va metodik kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim talablardan hisoblanadi. Mamlakatimizda ma'nan yetuk, ruhan sog'lom, uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi.

Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan ta'lim texnologiyalarni ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdan, multimediyaga resurslaridan oqilona foydalanishdan, buning mevasi bo'lgan o'quvchi bilish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, o'quvchini mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda faoliyat yuritadi. O'qituvchi boshqaruvchi sifatida o'quvchiga turli yo'nalishlarni ko'rsatadi. O'quvchi dars jarayonida faol harakat qilib, o'zi mustaqil fikr yuritadi.

Bunda ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, bu borada o'quv - uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; ta'lim tizimining axborot-resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; mazkur yo'nalishlarda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, bo'lajak mutaxassislarning texnologik va metodik kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish uchun avvalo, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Respublikamizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari yangi ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Pedagoglarga qo'yilayotgan talablar asosida o'z faoliyatlariga yangiliklar kiritib bormoqda. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida fan, texnika va ilg'or tajribalardan foydalanish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Bu jarayon o'qituvchilarda yanada ma'suliyat hissini oshirmoqda. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi

o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga aniq ketma-ketlik asosida tizimli, hamkorlikda erishishlari tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatli natija. Interfaol usullarning asosiy maqsadi - o'quvchilarni faol harakatga undash, darsga jalb etish, hamkorlikda ishlashga o'rgatishdan iborat. Bunday metodlarga: "Zinama-zina", "Charxpalak", "Bumerang", "Muammo", "Rezyume", "FSMU", "Yelpig'ich", "Yozma baxslar", "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Muloqot", "Uchga to'rt", "Blits so'rov" va shu kabi qator metodlar mavjud. Hozirgi paytda o'quv materiallari, axborotni ekranda ko'rsatish imkonini vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitafon bilan ta'minlangan auditoriyalarda dars o'tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo'llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. Bunda:

ta'lim oluvchilarga o'rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish;

o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish;

ta'lim oluvchilarni xohish, talab, ehtiyojlarini, qiziqishlarini qondirish;

o'qituvchining ta'lim oluvchilarning bilimini, ko'nikmalarini sinash bilan bog'liq samarali aloqa o'rnatish;

talaba-o'quvchilarni o'zlashtirishi bo'yicha ob'yektiv hisobot, to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda pedagogning ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, interfaol usullarni o'zlashtirish, texnik, texnologik vositalarni amaliy joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zida yuqoridan buyruq, ko'rsatma bilan ta'lim jarayoniga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq bo'lgan jarayondir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonida asosiy o'quvchining berilgan murakkab o'quv axborotlaridan osonlik bilan foydalana olishga yordam berish, o'quvchilarni mustaqil ta'lim olish faoliyatiga imkoniyat yaratish vazifalarini bajaradi. Shularni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayoni va unda o'qituvchining ish faoliyatini rejalashtirishga doir ilmiy ishlarni keng doirada olib borish kerak va bu o'z samarasini ko'rsatadi.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimi pedagogdan o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro individual munosabat va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari ta'sirini faollashtirishni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida zamonaviy informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni faol qo'llash o'quv jarayonida o'qituvchining o'rni, ro'li va pedagogik faoliyatini ma'lum darajada o'zgartirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda asosiy e'tibor zamonaviy informatsion texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayoni modelini yaratish va multimediya texnologiyalariga asoslangan elektron darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ш.Х. Кулиева Методологические основы системного подхода при подготовке учителей. The Way of Science 5, 39.

Ш.Х. Кулиева Содержание эффективности и качества подготовки будущих учителей трудового образования Наука без границ, 67-69.

Ш.Кулиева, К.Холматова Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг касбий-педагогик тайёргарлигини такомиллаштириш Общество и инновации 2 (5/S), 49-53.

Ш.Х. Кулиева ТЕХНОЛОГИҚ ТАЪЛИМ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШДА ТЕХНОЛОГИҚ МАДАНИЯТНИНГ ЎРНИ Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture 2 (5), 16-20.

Ш.Х. Кулиева Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя Казанский педагогический журнал, 48-52.

El papel de las tecnologías pedagógicas modernas en la formación de la competencia comunicativa de los estudiantes. KS Halimovna, MO Nurilloevna, KD Radzhabovna, RG Shavkatovna Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.

Ш Кулиева, О Узоков, Д Назарова Техник ijodkorlik va konstruksiyalash fanida talabalarning kompetentligini rivojlantirish mazmuni Общество и инновации 2 (10/S), 278-285.